

“Ijro.gov.uz” tizimida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta’minlashda Ekologiya va iqlim o’zgarishi milliy qo’mitasida ijro intizomi holati to’g’risida ma’lumot

“Ijro.gov.uz” tizimida Ekologiya va iqlim o’zgarishi milliy qo’mitasiga kelib tushgan O’zbekiston Respublikasi qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari bo’yicha 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida **2605 ta** topshiriq ijrosini ta’minlash belgilangan.

Joriy yilning 29-dekabr holatiga ko’ra, mazkur topshiriqlardan **2588 tasi (yoki 99,3 foizi)**ning ijrosi ta’minlandi.

2025-yilda jami topshiriqlarning **139 tasi (5,4 foizi)** ijrosida muddat kechikishiga yo’l qo’yilgan. Qolgan topshiriqlarning barchasi **belgilangan tartibda nazoratdan yechilgan**.

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta’minlashda ijro intizomini buzgan tarkibiy bo’linmalar va tizim tashkilotlarining mas’ul rahbar va xodimlariga nisbatan **intizomiy chora tadbirlari** ko’rib borilmoqda. Ijro intizomi talablarini buzgan xodimlarga nisbatan intizomiy choralarning boshqa shakllari bilan bir qatorda **ularning ustama ish haqlariga nisbatan pasaytirilgan koeffitsientlar** qo’llanilib kelinmoqda.

Ijro intizomini mustahkamlash masalalari qo’mita rahbariyati ishtirokida **haftada 2 marta** (dushanba, juma kunlari) o’tkaziladigan yig’ilishlarda muhokama qilib borilmoqda.

Bugungi kunda **dekabr oyi yakunigacha** “Ijro.gov.uz” tizimida qo’mita tomonidan bajarilishi lozim bo’lgan topshiriqlar ijrosining borishi qo’mita markaziy apparati tarkibiy bo’linmalari va tizim tashkilotlari rahbarlarining hisobotlari asosida topshiriqlar ijrosini jadallashtirish yuzasidan

chora-tadbirlar belgilab olingan holda **kundalik nazorat rejimida** davom ettirilmoqda.